


# Termizda vatanparvarlik tadbiri bo'lib o'tdi

Image not found or type unknown



Termizda vatanparvarlik tadbiri bo'lib o'tdi  
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 22-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 30 yilligi hamda Vatan himoyachilari kunini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoyishi hamda O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirining tegishli

buyrug'ini ijrosini ta'minlash maqsadida Termizda "Xalq va armiya bir tanu bir jon!" shiori ostida vatanparvarlik tadbiri bo'lib o'tdi.

Termiz shahar madaniyat markazida boshlangan tadbirning rasmiy qismida harbiy xizmatchilar, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Surxondaryo viloyati bo'limi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi viloyat bo'limi, Yoshlar ittifoqi viloyat Kengashi vakillari o'z ma'ruzalari bilan ishtirok etdi.

So'zga chiqqanlar bugungi globallashuv davrida insonlarning, ayniqsa yoshlarning ongi va ularning kelajagi uchun kurash yanada keskinlashayotganini ta'kidlab o'tishdi. Shuning uchun ham bugun yoshlarimizdan yanada ko'proq bilim olishni va Vatan rivoji uchun shaxsiy ma'suliyat hissini oshirishni davrning o'zi taqozo etayotgani e'tirof etildi. Tadbirda harbiy xizmatchilarni dala mashg'ulotlaridan hamda armiya o'yinlarida erishgan yutuqlari to'g'risidagi videolavhalar namoyish etildi.

Tadbirlarda faol ishtirok etgan bir necha yoshlar Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug qo'shinlari qo'mondoni o'rinbosari polkovnik Po'latjon Sativaldiyev tomonidan esdalik sovg'a hamda kitoblar bilan taqdirlandilar.

Tadbirning ikkinchi qismi harbiy qism stadionida faxriy qorovulning ko'rgazmali va qo'l jangi chiqishlari hamda harbiy qismlarda mavjud zamonaviy qurol-yarog'lar namoyishiga ulanib ketdi. O'quvchi yoshlar harbiy akalari bilan esdalik uchun

suratlarga tushdilar.

